

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

- Использование генетически модифицированных организмов для борьбы с загрязнением.

- Улучшение технологий выращивания клеточных тканей для трансплантации.

Эволюционная генетика и биотехнологии уже сегодня меняют мир, предлагая инновационные решения для здоровья человека, окружающей среды и сельского хозяйства.

Заключение

Генетика продолжает преобразовывать науку и медицину, открывая новые возможности для лечения, диагностики и понимания эволюционных процессов. С каждым годом исследователи делают шаги к более точной персонализированной медицине, разработке новых методов геномного редактирования и биотехнологий, способных улучшить жизнь миллионов людей. Однако эти достижения требуют ответственного подхода и строгого регулирования, чтобы исключить потенциальные риски вмешательства в геном человека. Баланс между научным прогрессом и этическими нормами станет основой безопасного и эффективного применения генетических технологий в будущем.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Ватсон, Дж. Д., Крик, Ф. Х. Молекулярная структура нуклеиновых кислот: структура ДНК Nature, 1953.
2. Гриффитс, А. Дж. Ф., Весслер, С. Р., Кэрролл, С. Б. Введение в анализ генетики. 12-е издание. W. H. Freeman, 2019.
3. Страчан, Т., Рид, А. П. Молекулярная генетика человека. 5-е издание. Garland Science, 2018.
4. Альбертс, Б., Джонсон, А., Льюис, Дж. Молекулярная биология клетки. 6-е издание. Garland Science, 2014.
5. Снайдер, М., Герштейн, М., Рен, Б. Персонализированная медицина на основе анализа генетических данных. Annual Review of Genomics and Human Genetics, 2016.

**BOLALARDA UCHRAYDIGAN YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI,
YURAK YETISHMOVCHILIGI, TUG'MA VA ORTTIRILGAN YURAK
XASTALIKLARI, OQ VA KÓK POROGLAR, ETIOLOGIYASI (KELIB CHIQISH
SABABLARI), KLINIK BELGILARI, TASHXIS QO'YISH, DAVOLASH,
OLDINI OLIISH CHORA TADBIRLARI.**

Soibova Kamola

*Buxoro Davlat Tibbiyot instituti
Pediatriya yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Annotatsiya: Maqolada bolalarda uchraydigan yurak kasalliklari, yurak yetishmovchiligi, oq va kók poroglar, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, belgilari va alomatlari hamda davolash, tashxislash usullari va oldini olish chora tadbirlari yoritilgan.

Kalit sózlar: Yurak, vena, arteriya, oq porog, kók porog, qon aylanish sistemasi, qorincha, bólmacha, kasallik, bemor, tashxis, davo, yurak yetishmovchiligi, bola, to‘qimalar, belgilari, qon, klapan, o‘lim, sabablari, EKG, sianoz, simptomlar, jarrohlik aralashuvi, kislorod, aortal klapan. ona, tug‘ma, diagnostika, virusli infeksiya, xavf, kompensatsiyalanmagan, kompensatsiyalangan.

Ключевые слова: Сердце, вена, артерия, белое вещество, синее вещество, кровеносная система, желудочек, камера, заболевание, пациент, диагностика, лечение, сердечная недостаточность, ребенок, ткани, симптомы, кровь, клапан, смерть, причины, ЭКГ, цианоз, симптомы, хирургическое вмешательство, кислород, аортальный клапан. материнский, врожденный, диагностический, вирусная инфекция, риск, некомпенсированный, компенсированный.

Yurak qonni harakatlantirib, uni inson a'zolari va toqimalariga yetkazib beradigan a'zodir. Yurak kókrak qafasida to'sh suyagining orqasida, ikkala ópkaning órtasida joylashgan. Sog'lom odam yuragining hajmi 250-300 grammni tashkil etadi.

Hozirgi kunda bolalarda uchraydigan kasalliklarning aksariyati yurak-qon tomir kasalliklari bilan bog'liq. Ayniqsa, yurak yetishmovchiligi, oq va kók poroglar juda ko'p uchramoqda. Avvalo, savol tug'iladi, bu kasalliklar qanday kelib chiqadi? Ularning belgilari va davolash usullari qanday?

Yurak porogi deb, yurak klapanlarini tuzilishida qon aylanishining izdan chiqishiga olib keladigan nuqson borligi sababli boshlangan kasallikka aytiladi. Bunday kasalliklar tug'ma va hayoti davomida orttirilgan bólishi mumkin. Tug'ma yurak porogi – yurak va yirik tomirlar tuzilishidagi nuqsonlar bólib bemorda tug'ilganidan boshlab mavjud bóladir. Aksariyat, poroglar yurak katta va kichik qon aylanish doirasidagi qon oqimini buzadi. Yurak poroglari eng kóp uchraydigan tug'ma nuqsonlar bólib, ular rivojlanish poroglari tufayli bolalar ólimining asosiy sababidir. Tug'ma yurak poroglarining eng kóp órganilgan sabablari- nuqtali genetik ózgarishlar yoki DNK segmentlarining deletsiyasi yoki duplikatsiyasi shaklidagi xromosomal mutatsiyalardir.

Tug'ma yurak nuqsoni paydo bo'lishining asosiy sabablari quyidagi omillardir:

- homiladorlik davrida ona bo'lgan noqulay ekologik vaziyat;
- homilani olib yurish davrida alkogol va ayrim dori preparatlarini iste'mol qilish;
- onaning yoshi 35 yoshdan katta;
- onadagi virusli infeksiyalar.

Homilada yurak nuqsoni, odatda, ona qornida 2 - 8 haftalik rivojlanish davrida shakllanadi. Og'ir nuqsonlar homilador ayolga uch marta - homiladorlikning har uch oyida bir martadan o'tkaziladigan UTTda aniqlanishi mumkin.

Tug'ma yurak nuqsoni belgilari

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Tug'ma yurak nuqsonining asosiy belgilari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Rangparlik
- Nafas olish yetishmovchiligi
- Yurak ishining buzilishi
- Jismoniy rivojlanishdan orqada qolish
- Yurak yetishmovchiligi
- Terining ko'kintirligi
- Yurakdagi shovqin

Agar shifokor homila ichi rivojlanish davrida yurak nuqsoni rivojlanishi mumkinligidan shubhalansa, ayolga ixtisoslashtirilgan tug'ruqxonada tug'ish tavsiya etiladi, u yerda kardiografik xizmatlarning to'liq spektri taqdim etiladi.

Tug'ma yurak porogi shartli ravishda 2 guruhga bólinadi: oq (arteriya va venoz qon aralashmaydi, qonning chap-óng oqimi bilan)

Kók (qonning óng va chap oqimi bilan, arterial va venoz qon aralashadi)

Kók porog nuqsonlari deb nomlanishiga Sabab, ular sianoz (qon kislorod bilan tóyinmasligi oqibatida teri va shilliq pardaning kókimtir rangga kirishi) ga olib keladi.

Alomatlar kópincha hayotning dastlabki bosqichlarida namoyon bóladir, ammo ba'zi tug'ma yurak poroglari umr bóyi sezilmasligi mumkin. Ba'zi bolalarda umuman alomat kuzatilmaydi, boshqalarida esa nafas qisilishi, sianoz, hushdan ketishi, yurak shovqinlari, oyoq-qól mushaklarining kam rivojlanganligi bólishi mumkin.

Yurak porogi kompensatsiyalangan va kompensatsiyalanmagan bo'ladi. Kompensatsiya bosqichida bemor mutlaqo shikoyatlar qilmasligi yoki bu shikoyatlar arzimagan bo'lishi mumkin. Jarayon dekompensatsiyali bo'lganda qon aylanishi buziladi, bunda shu yurak porogi uchun maxsus simptomlar (masalan, aorta klapani yetishmovchiligida bosh aylanishi xurujlari, mitral stenozda qon tupurish) bilan birga biror bosqichda yurak yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlar (nafas qisishi, Teri osti yog' kletchatkasida shish) paydo bo'ladi.

Tashxis: laboratoriya -instrumental tadqiqot usullarining ma'lumotlari muayyan porog turiga bog'liq ravishda o'zgaruvchan bo'ladi. Yetakchi uslublar orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

EKG

Yurakning panoramal rentgenografiyasi

Exo-EKG

Doppler-exo-KG

Tug'ma yurak porogini davolash asosan, jarrohlik va terapevtik davolash turlariga bo'linishi mumkin.

Jarrohlik usulida davolash (bu pirog fazasiga bog'liq)

- 1- Fazada favqulodda ko'rsatmalar bo'yicha operatsiya
- 2- Fazada rejalashtirilgan tartibda operatsiya
- 3- Fazada operatsiya ko'rsatilmaydi

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Terapevtik davolash: kamdan-kam hollarda radikal davolash sifatida ko'rsatiladi. Klassik misol- ochiq arterial nay bo'lib, bunda tegishli sxema bo'yicha indometazin tayinlash arterial nayni obliterapiyasiga olib keladi.

Xavf

Agar bolada yurak nuqsoni o'z vaqtida aniqlanmasa va zarur jarrohlik aralashuvi o'tkazilmasa, jismoniy rivojlanishning jiddiy buzilishlari rivojlanishi mumkin, bu esa juda kam hollarda o'limga olib kelishi mumkin.

Oldini olish

Homilada tug'ma yurak nuqsonining oldini olish uchun homilador ayolga sog'lom turmush tarzini olib borish, imkon qadar ekologik toza zonada bo'lish va ayniqsa homiladorlikning 2 haftasidan 8 haftagacha bo'lgan kritik davrida virusli infeksiyalardan qochish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ichki kasalliklar (F.O.Haydarov, SH.X.Ermatov) Tug'ma yurak porogi – sabablari, tasnifi, tashxislash, davolash, asoratlari, oqibati
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/yurak-tomir/tugma-yurak-porogi/>
3. Mavroudis C, Backer CL. Pediatric Cardiac Surgery. 4th ed. Wiley-Blackwell; 2013.
– Tug'ma yurak nuqsonlarini jarrohlik yo'li bilan davolash usullari tahlil qilingan.
4. Park MK. Pediatric Cardiology for Practitioners. 6th ed. Elsevier; 2014.
– Yurak tug'ma nuqsonlarining klinik ko'rinishlari, diagnostikasi va pediatrik amaliyotdagi yondashuvlar yoritilgan.
5. Fakultet pediatriyasi(A Muxtorxo'jayeva va boshqalar) Toshkent (TURON IQBOL) 2015. Bolalarda uchraydigan tug'ma yurak nuqsonlari.
6. Moorman AF, Christoffels VM. Cardiac chamber formation: development, genes, and evolution. *Physiol Rev.* 2003;83(4):1223–1267.
7. Anderson RH, Baker EJ, Macartney FJ, Rigby ML, Shinebourne EA, Tynan M. *Paediatric Cardiology.* Churchill Livingstone, 2002.

TA'LIMDAGI TENGSIZLIK: SHAHAR VA QISHLOQ MAKTABLARIDAGI FARQNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.

Martpólatova Madina Toxirjon qizi

University of Business and Science Univeriteti

Boshlang'ich ta'lim yónalishi 1 kurs talabasi

madinamartpolatova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna